Tursunova Aziza Baxrom qizi
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
O'zbekiston, Chirchiq shahri
E-mail: tursunovaa426@gmail.uz

SHAXMAT TO'GARAKLARIDA O'RGATISH METODIKASINI QO'LLANISH USULLARINI SPORT NATIJASIGA TA'SIRI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23266777

Annotatsiya. Maqolada maktab shaxmat to'garaklarida o'rgatish metodikasining sport natijalarini yaxshilashdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Partiyalarni tahlil qilish, amaliy o'yin, taktik mashqlar hamda individual va differensial yondashuvlarning mazmuni ko'rib chiqilgan. Shaxmatchilarning taktik va strategik fikrlashi, diqqat barqarorligi, aqliy chidamliligi va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiya, motivatsion qo'llab-quvvatlash hamda mashg'ulotlarni tizimli tashkil etishning o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: shaxmat sport to'garaklari, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, antropometrik o'lchash, biomexanik tahlil, psixologik diagnostika

Kirish

Dunyodagi ko'plab mamlakatlar shaxmatni ta'lim tizimining muhim qismi sifatida qabul qilgan. Bu davlatlarda shaxmat maktab dasturlariga kiritilib, o'quvchilarning intellektual rivojlanishida ijobiy natijalarga erishilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida aqliy salohiyatni rivojlantirish, intellektual sport turlarini ommalashtirish va yoshlarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirish ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Shaxmat esa nafaqat sport turi, balki mustaqil fikrlash, strategik rejalashtirish, tahlil qilish, mas'uliyat va sabr-toqatni shakllantiruvchi kuchli pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi. Shu bois sport to'garaklarida shaxmat mashg'ulotlarini samarali tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston shaxmat maktabining yutuqlari — xalqaro musobaqalarda o'zbekistonlik yoshlar tomonidan qo'lga kiritilayotgan g'alabalar, umumta'lim maktablarida shaxmat ta'limini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari — ushbu sport turini metodik va pedagogik jihatdan yanada chuqur tadqiq qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, sport to'garaklarida qo'llanilayotgan pedagogik usullarni ilmiy asosda o'rganish, ularni zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos metodikani ishlab chiqish ham nazariy, ham amaliy jihatdan talab yuqori bo'lgan masalalardan biridir.

Hozirgi zamonaviy sport tizimida shaxmat nafaqat intellektual o'yin, balki yuqori darajadagi tayyorgarlik, strategik fikrlash va psixologik barqarorlikni talab qiladigan sport turi hisoblanadi. Shaxmat to'garaklari yosh sportchilarni tayyorlashning boshlang'ich va asosiy bosqichi bo'lib, aynan shu jarayonda qo'llaniladigan o'rgatish metodikasi ularning kelajakdagi sport natijalarini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Maktab shaxmat to'garaklarida o'rgatish metodikasini qo'llanish usullarini orqali yuqori natijalarga erishish.

Tadqiqotning vazifasi. Shaxmat sport turining pedagogik ahamiyatini ilmiy asosda yoritish, mavjud pedagogik usullarni tahlil qilish va tasniflash, shaxmat to'garaklarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik modelni ishlab chiqish. Shaxmat to'garaklarida qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlarning afzallik va kamchiliklarini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, antropometrik o'lchash, biomexanik tahlil, psixologik diagnostika,

ekspert baholash hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot muhokamasi. Metodikaning noto‘g‘ri tanlanishi o‘quvchilarning rivojlanishini sekinlashtirsa, ilmiy asoslangan va tizimli metodika esa qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Mazkur sxemada aks ettirilgan shaxmatni o‘rgatish metodikasining tarkibiy qismlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ular shaxmatchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va musobaqa faoliyatidagi natijadorligini kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxmatni o‘rgatish metodikasining nazariy asoslari pedagogikaning fundamental tamoyillariga tayangan holda tashkil etiladi. Xususan, onglilik va faollik tamoyili o‘quvchilarning shaxmat qonuniyatlarini chuqur anglab yetishlari, mustaqil fikrlashlari va ijodiy qarorlar qabul qilishlarini ta’minlaydi. Individual yondashuv tamoyili esa har bir o‘quvchining yosh, psixologik va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili orqali o‘quvchilarda egallangan nazariy bilimlarni amaliy partiyalarda qo‘llash malakasi shakllantirilib, bu ularning shaxmat mahoratini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxmat to‘garaklarida qo‘llaniladigan asosiy metodik usullar o‘quvchilarning taktik va strategik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular orasida analitik metod muhim o‘rin egallaydi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar o‘ynalgan partiyalarni tahlil qilish, xatolar sabablarini aniqlash hamda optimal yurish variantlarini tanlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Amaliy o‘yin metodi o‘quvchilarning musobaqa sharoitiga moslashuvini ta’minlab, nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Taktik mashqlar metodi esa kombinatsion fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va murakkab vaziyatlardan samarali chiqib ketish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar esa turli tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Metodikaning sport natijalariga kompleks ta’siri shaxmatchining ko‘p qirrali tayyorgarligida namoyon bo‘ladi. Jumladan, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida o‘quvchilarning taktik va strategik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, o‘yin davomida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni tez va aniq baholash malakasi shakllanadi. Shu bilan birga, psix-



1-rasm. Maktab o‘quvchilarni darsdan tashqari sport to‘garaklarida shaxmat sport turini o‘rgatish metodikasi

ologik tayyorgarlik darajasi ortib, stressga bardoshlilik, diqqatni jamlash, iroda sifatlari va musobaqa davomida emotsional holatni boshqarish qobiliyatlari takomillashadi. Bunday yondashuv natijasida musobaqa faoliyatining samaradorligi oshib, sportchilarning yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Metodika va natija o‘rtasidagi ilmiy bog‘liqlik tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv orqali namoyon bo‘ladi. Mashg‘ulot jarayonining maqsadli rejalashtirilishi, haftalik va oylik tayyorgarlik dasturlarining ishlab chiqilishi hamda o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini muntazam nazorat qilish metodikaning samaradorligini ta’minlaydi. Ilmiy asoslangan yondashuv orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyati, strategik tafakkuri va musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari muntazam tahlil qilinadi. Individual yondashuv tamoyiliga tayangan holda mashg‘ulot yuklamalarini moslashtirish esa har bir sportchining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga xizmat qiladi. Natijada, shaxmatni o‘rgatish metodikasi sport natijalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘lib, shaxmatchilarning texnik, taktik, psixologik va intellektual tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu sababli zamonaviy shaxmat ta’limida ilmiy asoslangan metodik yondashuvlardan foydalanish yuqori sport natijalariga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur metodika shaxmatchilarning chidamlilik darajasi va psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan metodikaning asosiy tarkibiy qismlari yoritilgan bo‘lib, ular sportchilarning intellektual faoliyati samaradorligini oshirish, musobaqa jarayonidagi ruhiy barqarorligini ta’minlash hamda uzoq davom etadigan o‘yinlarda yuqori natijalarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shaxmat sport turi jismoniy faollikdan ko‘ra ko‘proq aqliy zo‘riqishni talab qiladigan sport turi hisoblanganligi sababli, sportchilarning diqqatni uzoq vaqt davomida saqlay olishi, vaziyatlarni tezkor tahlil qilishi va psixologik bosim sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash shaxmatchining psixologik tayyorgarligini mustahkamlashda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Murabbiy tomonidan qo‘llaniladigan rag‘batlantirish usullari sportchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning maqsad sari intilishlarini yanada kuchaytiradi. Qiyinchiliklarni yengib o‘tishga undovchi psixologik qo‘llab-quvvatlash sportchilarda stressga chidamlilik va iroda sifatlarining rivojlanishi-



2-rasm. Shaxmatchilarning chidamlilik va sport psixologik holatini yaxshilash va malakasini oshirish metodikasi

ga yordam beradi. Og‘zaki maqtovlar, kichik rag‘batlantiruvchi sovrinlar va erishilgan natijalarni e’tirof etish sportchining o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, murabbiy va sportchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonchli munosabatlarning shakllanishi mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirib, sportchining ruhiy barqarorligi hamda musobaqalardagi natijadorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxmatchilarning chidamlilik va psixologik holatini yaxshilash metodikasi diqqatni rivojlantirish, refleksiya va tahlil hamda motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash kabi o‘zaro bog‘liq pedagogik vositalar majmuasidan iborat bo‘lib, ular sportchilarning intellektual, psixologik va musobaqaviy tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodikaning tizimli ravishda qo‘llanilishi natijasida shaxmatchilarning diqqat barqarorligi, strategik fikrlash qobiliyati, stressga chidamliligi va o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari takomillashadi. Natijada sportchilar uzoq davom etadigan musobaqalarda yuqori ish qobiliyatini saqlab qolish, murakkab o‘yin vaziyatlarida optimal qarorlar qabul qilish hamda barqaror sport natijalariga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur metodika shaxmatchilarning chidamlilik va psixologik holatini yaxshilashda kompleks va tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Unda diqqatni rivojlantirish, refleksiya va tahlil hamda motivatsion qo‘llab-quvvatlash o‘zaro uzviy bog‘langan holda qo‘llanilib, sportchining kognitiv, emotsional va irodaviy sifatlarini birgalikda rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda sport to‘garaklarida shaxmat sport turini rivojlantirishda pedagogik usullar o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning intellektual va emotsional rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodlar — interfaol yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, individual o‘qitish va musobaqaviy faoliyat integratsiyasi orqali shaxmat o‘rgatish jarayoni samarali va innovatsion xarakter kasb etadi. Mazkur maqola natijalari shaxmat to‘garaklarida ta’limni tashkil etishda metodik qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxmatni o‘rgangan o‘quvchilar matematika, informatika, mantiq va boshqa fanlarni yaxshiroq o‘zlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The role of deliberate practice in chess expertise / N. Charness, M. Tuffiash, R. Krampe [et al.] // Applied Cognitive Psychology. – 2005. – Vol. 19, № 2. – P. 151–165.

2. Gobet F. The role of domain-specific practice, handedness, and starting age in chess / F. Gobet, G. Campitelli // Developmental Psychology. – 2007. – Vol. 43, № 1. – P. 159–172.

3. de Bruin A. B. H. The effect of self-explanation and prediction on the development of principled understanding of chess in novices / A. B. H. de Bruin, R. M. J. P. Rikers, H. G. Schmidt // Contemporary Educational Psychology. – 2007. – Vol. 32, № 2. – P. 188–205.

4. Trinchero R. Chess training and mathematical problem-solving: The role of teaching heuristics in transfer of learning / R. Trinchero, G. Sala // Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. – 2016. – Vol. 12, № 3. – P. 655–668.

5. Aciego R. The benefits of chess for the intellectual and social-emotional enrichment in schoolchildren / R. Aciego, L. García, M. Betancort // The Spanish Journal of Psychology. – 2012. – Vol. 15, № 2. – P. 551–559.

6. Sala G. Do the benefits of chess instruction transfer to academic and cognitive skills? A meta-analysis / G. Sala, F. Gobet // Educational Research Review. – 2016. – Vol. 18. – P. 46–57.

7. Psychophysiological stress response of adolescent chess players during problem-solving tasks / J. P. Fuentes-García, T. Pereira, M. A. Castro [et al.] // Physiology & Behavior. – 2019. – Vol. 209. – Art. 112609.